

Dilafruz BURANOVA,

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Xorijiy tillar kafedrasи mudiri, PhD, dotsent

E-mail: d.buranova5@gmail.com

Tel. (93) 557 72 45

O'zDJTU professori, p.f.D. G.H.Bakieva taqrizi asosida

MODERN CRITERIA FOR THE FORMATION OF ENGLISH COMPETENCE IN MEDICAL HIGHER EDUCATION

Annotation

This article provides a scientific study of effective English language learning in medical universities. Special attention is paid to the methodology of integration into the fields of specialty, and that is especially important in the improvement of modern criteria of the formation of English language proficiency for medical students, such as the use of advanced technologies, effective teaching methods and principles, a combination of various methodological and didactic tools, ensuring the relationship between professional education and English, attracting qualified teaching staff.

Key words: English, medicine, competence, methodology, standard, method, communication, didactics, motivation, teacher, student, specialty, field of activity.

СОВРЕМЕННЫЕ КРИТЕРИИ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ВЛАДЕНИЯ АНГЛИЙСКИМ ЯЗЫКОМ В МЕДИЦИНСКОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Данная статья предоставляет научное исследование процесса совершенствования и эффективного усвоения английского языка в медицинских вузах. Особое внимание уделяется методологии интеграции в сферы специальности, что особенно актуально в совершенствовании современных критериев формирования компетенции владения английским языком в медицинских вузах, таких как использование передовых технологий, эффективных методов и принципов обучения, сочетание различных методологических и дидактических инструментов, обеспечение взаимосвязи между профессиональным образованием и английским языком, привлечение квалифицированных педагогических кадров.

Ключевые слова: Английский язык, медицина, компетентность, методология, стандарт, метод, коммуникация, дидактика, мотивация, преподаватель, студент, специальность, сфера деятельности.

TIBBIY OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILI KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEZONLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilini tibbiyot sohasi uchun mukammal o'zlashtirish jarayonini ilmiy jihatdan tadqiq etish, tibbiyot OTM larida mutaxassislikka integrasiyalashuv metodologiyasi va fanlar o'rtaqidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalarining dolzarbliji asoslanadi. Ingliz tili bo'yicha talabalarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar hamda samarali usul va tamoyillarni qo'llash, turli metodik va didaktik vositalarini birlashtirish, professional ta'lif va ingliz tili fani o'rtaqidagi mutanosiblikni anglash, malakali kadrlarni jaib qilish kabi zamonaviy mezonlar majmui bo'lajak shifokorlarning ingliz tili kompetentsiyasini shakllantirishda maqsadga muvofiqidir.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, tibbiyot, kompetentsiya, metodologiya, standart, uslub, kommunikasiya, didaktika, motivasiya, pedagog, talaba, mutaxassislik, sohasi.

Kirish. Zamon ta'lif standartlariga mos, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini mukammal o'zlashtirgan pedagog kadrlarning xorijiy tillarni bilish masalalari mazkur yo'nalishda salohiyatini oshirish yuzasidan tizimli yondashuvni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli Qarorida xorijiy tillarni o'qitish ta'lif siyosatining ustuvor yo'halishi sifatida belgilanar ekan, sohaga malakali pedagoglarni jaib etish, ta'lif muassasalarining xorijiy tillarni o'zlashtirgan mutaxassislarga ehtiyojlarini tahlil qilgan holda, xorijiy tillarni o'qitishni sifat jihatdan mutazam takomillashtirish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollarini, jamiyat ehtiyojlarini, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, "istiqbolli ilmiy-pedagogik kadrlarni, birinchi navbatda, muhandislik-teknika va arxitektura ta'lif yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lif muassasalarini pedagoglarining rivojlangan davlatlar, xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniyada 2-3 oylik kurslarda o'zaro hamkorlik bo'yicha tuzilgan shartnomalar, homiylik va xalqaro tashkilotlar grantlari mablag'lari hisobidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet elda stipendiatlarning malakasini oshirish" vazifalari alohida dolzarblik kasb etadi [1].

No filologik yo'nalishdagi professional OTM larda pedagog xodimlar uchun Umumevropa xalqaro standartining B 2 (chet tilini o'rganishning mustaqil muloqot bosqichi) darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatning talab etilishi, xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida qo'shimcha ustama haqi, rag'batlantirishlarning joriy qilinishi kabi chora va tadbirlar xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lif siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirib, mazkur yo'nalishda ta'lif sifatini tubdan oshirish uchun xizmat qilmoqda [2]. Shunday ekan, professional ta'lifda ingliz tilini soha doirasida mukammal o'zlashtirish masalasi, o'quv-uslubiy asoslarni mutazam ravishda takomillashtirish, mazkur jarayonni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ilg'or zamonaviy metodologik ta'minotdan unumli foydalananish va OTM xususiyatidan kelib chiqqan holda, mutaxassislikka integrasiyalashuvini ta'minlash dolzarblik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Soha va amaliyotga jaib qilish orqali bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining til kompetentsiyasini rivojlantirishda ular o'zlarini uchun ma'lum bo'lgan kasbiy ehtiyojlardan kelib chiqish, bunda mutaxassislik bo'yicha sohaviy matnlarini tahlil qilish, kasbiy ma'lumot va axborotlarni qo'llash usullari ko'plab zamonaviy tadqiqotlarda tahlil qilinar ekan, mutaxassislikka integrasiyalashuv metodologiyasi va fanlar o'rtaqidagi bog'liqlik materialni qulay va qiziqarli tarzda o'rganish imkonini berishi ta'kidlanadi [3], [4]. Mazkur jihat tibbiyot sohasi uchun ingliz tili va kundalik ingliz tili o'rtaqidagi

mutanosiblikni ta'minlashni belgilab beradi [5]. Tilshunoslik, pedagogika, sosiologiya va psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar, shuningdek, fanni o'zlashtirishga bo'lgan standart va talablarning ortishi xorijiy tillarini o'zlashtirishni mukammallashtirishni, uning mazmunini, o'qitish usullarini yangilashga kompleks yondashuvni tashkil etishga e'tibor qaratib, o'quv jarayonini intensivlashtirish masalasiga oid turli xildagi yondashuvlarni taqdim etadi [6]. Tadqiqotlar shuni ko'satdiki, kasbiy ma'lumotlarni va matnlarni ingliz tilida to'g'ri idrok etish, mutaxassislik uchun zarur bo'lgan so'z boyligiga ega bo'lish uchun birinchи navbatda kommunikativ kompetentsiyaga, ya'ni og'zaki nutqni o'zlashtirish muhim. Bu borada ingliz tilini o'qitishning eski metodikasi – matnni o'qib, tarjima qilish, qoidalarni yodlash kabi usullar bugungi kunda batamom yangicha bo'lgan standartlar bilan almashinib, zamonaviy tilni o'qitish usulublari asosan kommunikativ metodikaga asoslanganligi bilan xarakterlanadi, hamda asosan og'zaki nutq kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratiladi [7]. Tibbiyot OTM lari uchun tibbiyot soha mutaxassisining maqsad va vazifalarni aniq belgilash bunda asosiy omil sifatida belgilanadi [8]. Motivasiyani to'g'ri shakllantirish, kasbiy qiziqishdan unumli foydalanish, ingliz tili muhitini yaratish ommaviy til o'rganish va natijaviylikka erishishning poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilini o'qitish va o'zlashtirishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari ajratilib, ular ichki va tashqi dunyo atributlari sifatida namoyon bo'lishi taqozo etiladi. Mazkur jihatlar A.V.Xutorskiy tomonidan qayd etilib, ta'lim jarayonida didaktika metodikadan foydalangan holda amalga oshirilishi, bunda pedagogning uslubiy vositasi sifatida metodik kompetentsiyalar hizmat qilishi ta'kidlanadi [9]. A.V.Xutorskiy didaktik o'zlashtirishning quyidagi ierarxiyasini sanab o'tadi:

Umumta'lim kompetentsiyalari. Insонning har qanday yoshda umumiyligi ta'limga olishi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, bilimlarning uning hayoti davomida o'zlashtirilishi, asosiy intilishlari tipologiyasiga binoan belgilanadi.

Pedagogik, yoki umumkasbiy kompetentsiyalari. Bunda didaktika – pedagogikaning bir qismi bo'lgan fan nuqtai nazaridan kelib chiqiladi. Shu sababdan didaktikaga nisbatan pedagogik kompetentsiyalar umumiyligi kasbiy funktsiyalarni bajaradi.

Didaktik, yoki kasbiy kompetentsiyalar. Didaktika darajasi – bu loyihalashtirishning metodologik apparatiga ega bo'lish va o'qitishni amalga oshirish darajasi demakdir.

Metodik kompetentsiyalar. O'qitish amaliyotida didaktika metodika yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli o'qitishning asosiy quroli hisoblangan metodik vosaltilarga ega bo'lish metodik kompetentsiyalarni xarakterlaydi [9].

K. B. Baranova kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda muloqotning turli sohalarida matnlar yaratish qobiliyatini ta'riflar ekan, matn kompetentsiyasi haqida fikr yuritadi, hamda bunda tegishli leksik birlıklar, turli interfaol konstruktivlardan unumli foydalanish g'oyasini ilgari suradi [10]. Biz mazkur qarashlarini kommunikativ kompetentsiya tushunchasining ma'lum ma'nodagi tasnifi sifatida qabul qilishimiz mumkin. O'yaymizki, kommunikativ kompetentsiyani mukammal egallash zamonaiviyligi ingliz tilini o'qitish usullarning ilg'or shakllaridan biri sifatida tibbiyot sohasida mutaxassislik bo'yicha o'zaro aloqa, kelishuv, hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasp etadi. Biz mazkur qarashlarini kommunikativ kompetentsiya tushunchasining ma'lum ma'nodagi tasnifi sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mutaxassislik doirasida ingliz tilini mukammal egallashga qaratilgan metodologiyani aniqlashda kasbiy muhitni shakllantirish va mutaxassislikka integrasiyalashuv mezonlarini anglash maqsadiga muvofiqdir. O'qitish mazmunini idrok etish, tadbirlar ko'lalmini belgilash ila tibbiyot ta'limga va til ta'limi o'rtaqidagi mutanosiblikni ta'minlash o'ta muhim omillardan ekanligini ta'kidlaymiz. Bunda turliha didaktik yondashuvlarni asosida o'quv materiallarini soha va amaliyot nuqtai nazaridan o'rganuvchilar uchun qiziqarli hamda qulay tarzda tashkil etish o'rganishga nisbatan motivasiyani kuchaytiradi.

Tibbiyot OTM lari uchun ingliz tilini o'qitish metodologiyasida quyidagi dolzarb jihatlarni ajratish mumkin:

1. Ingliz tilini o'zlashtirish uchun shart-sharoitlarni sifat jihatidan yaxshilash, o'quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirish;
2. Tibbiyot talabalarining ingliz tilida savodxonligini oshirish jarayonida pedagogik mahorat, samarali usul va vosaltilardan keng foydalanish;


3. Bo'lajak tibbiyot mutaxassislariga o'z faoliyati doirasida chet tillarini o'rganish va yanada rivojlantirish uchun kuchli motivasiyon muhit yaratish;

4. Tibbiyot talabalarining ingliz tili bo'yicha bilimlarini oshirishga mas'uliyatlari yondashuviga erishish.

Talabalarga mavzu bo'yicha materialni taqdim etishda iloji boricha mutaxassislikda qo'llaniladigan vaziyatlar qo'llanilar ekan, pedagog, birinchi navbatda, ularning kasbiy ehtiyojarlarini hisobga olgan holdagi yondashuvga tayanishi lozim. Bunda ingliz tili uchun ajratilgan soatlar kontekstida emas, balki amaliyot nuqtai nazaridan kelib chiqib, talabalar uchun tanish bo'lgan vaziyatlarni tahvil qilish maqsadga muvofiqdir. Ingliz tilini o'qitishda o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'siri va muloqotiga asoslangan ushbu usulning afzalliklari haqiqatan ham dolzarbdir. Shuningdek, mutaxassisligi chet tili bo'lмаган universitetlarning talabalari uchun ingliz tilini o'rganishda guruhlarda ishlash, munozaralar, taqdimotlar kabi usullardan foydalanish ingliz tilini o'rganishda eng maqbul usullardandir [11]. Faoliyatni tashkillashtirish zamonaiviyligi menejment qoidalariiga asoslangan holda, ilg'or texnologiyalar va usulblarni qo'llash orqali tashkiliy boshqaruv tizimining o'ziga xos turidir. Unga ko'ra, ingliz tilini o'zlashtirish o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyatning ma'lum yo'nalishlarida belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Talabalarning maqsadlari, istak va hohishlarini aniq belgilash pedagogik mahoratning asosini tashkil qiladi. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti mutaxassislik kafedralari pedagog xodimlari hamda ingliz tili o'qituvchilarini o'rtaqidagi talabalarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda samarali usullar bo'yicha fikrlar aniqlandi. Bunda ingliz tili o'qituvchilarini (1-rasm) hamda mutaxassislik kafedralari pedagog xodimlari (2-rasm) tomonidan bildirgan fikrlar yig'indisi namoyon bo'lib, samarali usullar mexanizmlari aniqlandi.

1, 2-rasmlar. Samarali usullarni aniqlashtirish mexanizmlari




Shuningdek, talabalarning ingliz tilini o'rganishlarida qanday qiyinchiliklarga duch kelishi muammolari o'rganib chiqildi. Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti I va II kurs bakalavriat yo'nalishi talabalar o'rtaida bu borada so'rov o'tkazilib, ularning tilni o'zlashtirish kompetentsiyalarini bo'yicha o'z bilimlarini aniqlashlari taklif etildi, hamda tegishli xulosalarini chiqarishlari uchun imkoniyat berildi (1-jadval):

1-jadval

Talabalarning o'zlashtirish kompetentsiyalarini aniqlash

Nº	O'zlashtirish kompetentsiyaları	Erkin idrok eta olaman, osonlik bilan angloman	Ba'zi qiyinchiliklarga duch kelaman	Qiynalaman, bu borada o'z ustimda ishlashim kerak
1.	Mutaxassislik bo'yicha ingliz tilida tematik matnlarni o'qish va tushunish	I-19 % II-45%	I-33% II-56%	I-13% II-8%
2.	Gapirish va muloqot, to'g'ri talaffuz qilish	I-76 % II-74%	I-58% II-24%	I-21% II-14%
3.	O'z fikrini yozma bayon etish	I-23 % II-57%	I-47% II-36%	I-4% II-2%
4.	Ingliz tilida taqdimot tayyorlash va namoyish qilish	I-75% II-82%	I-78% II-92%	I-3% II-1%
5.	Mutaxassislik bo'yicha turli ma'lumot va adabiyotlarini o'qish va tahlil qilish	I-29% II-63%	I-69% II-72%	I-7% II-5%

Mutaxassislik bo'yicha ingliz tilida tematik matnlarni o'qish va tushunish, gapirish kompetentsiyasi bo'yicha muloqot va to'g'ri talaffuz qilish, fikrni yozma bayon eta olish, ingliz tilida taqdimot tayyorlash va namoyish qila olish, mutaxassislik bo'yicha axborot, ma'lumot va adabiyotlarni topish, o'qish va tahlil qilish kabi faoliyat turlari bo'yicha talabalar o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelar ekan, bu borada yuqori natijalarga erishish uchun o'zlarining ustida ishlashlari va muntazam til ko'nikmalarini rivojlantirishlari maqsadga muvofiq ekanligi ayon bo'ldi (3-rasm).



3-rasm. O'zlashtirish kompetentsiyalarining tasviriy ko'rinishi

Tibbiyot oliy ta'limida ingliz tilidan bilimlarni shakllantirishda samarali usul va tamoyillarni qo'llash turli metodik va didaktik vositalarini birlashtirish, o'rganuvchilarning fikr va takliflarini muntazam ravishda monitoring qilish omillariga tayanadi. Talabalar tomonidan ingliz tilini mutaxassislik doirasida o'zlashtirish kompetentsiyalarini borasida bildirgan fikrlari asosidagi tahlil natijalari shuni ko'satdiki, o'zlarining ustida ishlashi, topshiriq va vazifalarni o'zlariga qulay bo'lgan tarzda qabul qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, tanqidiy fikrflashlari orqali o'rganishning o'ziga mos tamoyillarini aniqlash, profesional ta'lim va ingliz tili fani o'rtaсидаги mutanosiblikni anglash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Tibbiy oliy ta'lim bugungi kunda ingliz tilini o'qitishning mazmunini belgilarni ekanmiz, uning quyidagi shakllarini ifoda etish mumkin:

- Zamonaviy texnologiyalarning taraqqiy etgan davlatlardagi usullarini qo'llash;
- Chet tillarini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan axborot texnologiyalari vositalirini qo'llash;
- Malakali kadrlarni jalg qilish;
- Muntazam nazorat va monitoringni ta'minlash.

Shuningdek, tibbiy oliy ta'limining barcha bosqichlari uchun ingliz tilini o'qitish jarayonining sifati asosan quyidagi shakllarda namoyon bo'лади:

1. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining, shuningdek, soha mutaxassislari, olimlari va pedagog xodimlarning ingliz tilini bilish darajasi va umuman, OTM dagi til o'rganish muhiti darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, qolgan kadrlar va talabalarning tillarni o'zlashtirish istagi shunchalik ortadi.

2. Bo'lajak kasbiy faoliyatni hisobga olgan holda, mutaxassislik talablaridan kelib chiqib, ingliz tilini o'zlashtirish uchun zarur motivasion strategiyani qabul qilishda kerakli muhit va sharoitlarni yaratish, sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, imtiyozlar yaratish – bularning barchasi yaxlit shaklda namoyon bo'lishi muhimdir.

4. Tibbiyot oliyogohida ilmiy izlanuvchilar va pedagog xodimlarning ingliz tili bo'yicha bilim va malakasini oshirish uchun yangi metodologik standartlar bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda xorijiy tillarini o'qitishning zamonaviy modelini yaratish mehanizmlarini muntazam ravishda takomillashtirish davr talabidir.

ADABIYOTLAR

1. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalari va tarmoqlarining ishtirotkini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3151 son Qarori 2017 yil 27-iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 606-sonli qarori. 2019 yil 19 iyul.
3. Antony L. The teacher as a student in ESP course design // Keynote address presented at the 2007 International asympposium on ESP & Its Applications in Nursing and Medical Emglisch Education. Fooyin University, Kaohsiung, Taiwan. – 2007, October.
4. Buchler, M. English for the Pharmaceutical Industry.. Oxford, –2010.
5. Pauline Webber. Speaking practice in the medical english classroom// bridging the gap between medical English and the everyday world. International Review of Applied Linguistics in Language Teaching 33.–1995 № 1, –P. 64-70.
6. Ballet K. K. Geert. Struggling with workload: primary teacher's experience of intensification // An international journal of research and studies. Volume 25. №8 - November, – 2009. – P. 1150-1157.
7. Ann Ehrlich. Medical Terminology for Health Professions // Delmar Publishers Inc. Part I. – 2016. –P. 5-7. <https://www.amazon.com/s>
8. Шарипова Ф.И. Современные подходы формирования языковой компетенции у студентов медицинских вузов // Современное образование (РФ). – 2019. – Р.18-23.
9. Хугорской А.В. Дидактика // Учебник для вузов. С.416. Стандарт третьего поколения. – Спб.: Питер. – 2017. – С. 720.
10. Баранбаева К.Б. Развитие коммуникативной компетенции учащихся на уроках английского языка через активные формы обучения // Вестник науки и образования. № 3(27). Том 2, – 2017. – С.66.
11. Li J. Research on interaction and communication in English teaching. Hebei, China. Web of Conferences 5, 0100. 2016. P.1-5. <https://www.shs-conferences.org/articles/shsconf>.